



TARIXIY OBRAZLAR TALQINI (ISAJON SULTONNING "ALISHER NAVOIY" ROMANIDA NAVOIY OBRAZI)

Davronova Surayyo Abdurahmon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Jurnalistika fakulteti,

Adabiyotshunoslik (O'zbek adabiyoti) 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida Navoiy obraziga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek asarning mohiyati, kompozitsiyasi, strukturasi, boblari, yozuvchi mahorati, obrazlar, tarixiy voqealar, peyzaj, portret haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *"Alisher Navoiy" romani, so'z, intertekstuallik, "Xazoyin ul-maoniy", portret, peyzaj, Hiri, Dumli yulduz.*

Alisher Navoiy ijodiga, uning shaxs sifatidagi kamolotini tilga olar ekansiz, beixtiyor ko'z oldingizda mislsiz ummon gavdalanadi. Shunday ummonki, na tubi ko'ringay, na yakuni. Bu sirli tilsim javohirotlarga limmo-lim, har safar varaqlaganiningizda yangi jilo kasb etadi. Bu durdona asarlar borinki zamin, zamon va makon tanlamaydi. Qalblar o'zlikning yangi eshigini ochaveradi, qalb iqrorining sirli jihatlarini kashf etaveradi. Qisqa qilib aytganda, har kim nimani istasa mutafakkir ijodidan shuni albatta topajak. Mana oradan V asr o'tibdiki, buyuk inson asarlari o'zining qadr-qiyomatini mohiyatini yo'qotgan emas, balki har daqiqa hayotimizda aks etmoqda desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Yan Parandovskiy¹ "So'z kimyosi" asarida "So'z orzuning egiz og'asidir. U sizga shunday sirli bir eshikni ochib beradiki, bu eshik orqali siz istagan vaqtingizda erkinlikka chiqa olishingiz mumkin". Chindan ham so'zning qadr -qimmati beqiyos. Yoki Hazrat Navoiyning shoh asari "Xamsa" da "Hayrat-ul abror" dostonida so'zni quyidagicha ulug'laydi.

So'z guhariga erur oncha sharaf,

Kim bo'la olmas, anga gavhar sadaf.

So'zni sevish, undan ehtirotkorona foydalanish zarur. Alisher Navoiy asarlarida so'zni muqaddas bilish, uni kerakli o'rirlarda ishlatishga da'vat etiladi.

Navoiy faxr iftixor ila aytish mumkinki, nafaqat o'z davrining, balki bugungi kun dahosi hamdir. Butun umrini xalqning faravonligiga, jamiyatninig istiqboliga, ilm fanning rivojiga o'zining hissasini qo'shgan mutafakkirdir. Badiiy ijodda shunday yuksaklikka bo'y cho'zdiki, hali hanuz hech kim Navoiy dahosidan yuqori bo'y cho'zmayotir.

¹ Parandovskiy Ya "So'z kimyosi" Juhon adabiyoti jurnali 2000- yil.N4 5-83





Alisher Navoiy buyuk mutaffakkirlaridan biridir nafaqat o'z davrining, bugungi kun dolzarb muammolarini V asr oldin his eta olgan dahodir. Navoiydek buyuk insonni asrlardan asrlarga barhayot o'tishing boisi, uning asarlaridir. Hazrat Navoiy haqida filmlar, teatrlar, badiiy asarlar yaratilgan. Lekin Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani yuqoridagi yaratiqlardan farqli ravishda Navoiy qalbini, Navoiy tuyg'usini, Navoiy his etgan dardlarni kengroq ochib berishga qaratilgan. Navoiy jamiyat va davlat ichida bo'lsa ham, uning ichki dunyosini "Meni"ni ochib berishga erishilgan.

Shuningdek, Navoiy davri va XV asr hayoti uchun tipik bo'lgan bo'lgan voqeа hodisalar turli obrazlar zanjiriga birlashtirilgan. Yozuvchi bu o'rinda juda ko'p izlanishlar olib borganligi, o'nlab tarixiy, badiiy asarlarga murojaat qiladi. Dunyo adabiyotshunosligida intertekstuallik degan adabiy hodisa bo'lib, unda yozuvchi uning mohiyati yozilgan asar tarkibida boshqa mualliflar asarlaridan parchalar olib foydalanadi. Isajon Sulton esa bu jarayonda tarixiy hodisalarning ifodalanishida aynan Navoiy asarlaridan olingan parchalardan, voqealardan foydalanadi.

Asar aytib o'tishimiz joizki, Navoiyning "Xazoyin ul -Maoni" "kabi 4 qismdan iborat. Boblarning har biri esa voqeа va hodisalar jo etgan bo'limlardan iboratdir. Bo'limlarning qisqaligi, nomlanishdagi ajoyibliklar ham kitobxonni befarq qoldirmaydi. Adib xuddi asarni Navoiynini Chordevoniga mohirlik bilan taqsimlab chiqqan. Asarning ilk bobи "G'aroyib-ul sig'ar"da bolalik hodisalarini, "Navodir ul-shabobda "yigitlik davri, "Badoe ul-vasatda " o'rta yoshli Navoiyni tasvirlasa, "Favoyid ul kibar" bobida esa keksalik davri qalamga olingan. Asarda Navoiyning bolaligidan toki umrining so'nggi kunlarigacha bo'lgan voqealar tarixiy faktlar bilan yoritilgan. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki asarda tarixiy voqealar asos qilib olingan bo'lsada, badiiylik, ifodaviylik yuqori.

Asarda Navoiy ilk tog'oyisi Muhammad Ali bilan kaklik ovida gavdalanadi. Yosh bo'lishiga qaramasdan qalbida hayvonot va nabodot olamiga muhabbatni sezilib turadi. Bolakaynining "Yo'q -Yo'q otmang" deya kaklikni ottirmaganligi, uning poloponlariga rahmi kelishi yoshgina Navoiy qalbida mehr muhabbat tuyg'ulari barq urganligidan dalolatdir. Navoiyning bolalik cho'glarida ham o'ziga xos vazminlik, mulohaza bilan ish yuritishini madrasa tahsilida, Abu Abdulloh Kulohiy darslarida, turli she'riyat kechalarida o'zini tutishida ko'rishimiz mumkin. Yosh bo'lishiga qaramay "Mantiq-ut tayr "ni zo'r qiziqish bilan mutolaa qildi.

Yozuvchi Navoiy portretini quyidagicha tasvirlaydi. "Yoshgina kalta olacha to'n hiylol qiyiq ko'zli g'aratli bolakay. Navoiy qalbiga adib tomondan ezgulik yaxshilik urug'lari moxirlik bilan jo etilgan.

Asarda Husayn Bayqoro tomonidan² "Ikkimiz ikki tur lashkar boshida bo'lar ekanmizda? Siz o'z qo'shningizni so'z mulkiga yoyabering, men esa inson cherigini jangu jadallarga yo'llay. Har ikkisida ham g'alaba muqarrar bo'lsin" deya xitobi o'z isbotini topgandek go'yo.

² Isajon Sulton "Alisher Navoiy" romani Toshkent "Adabiyot" nashiryoti 2021





Navoiy shuningdek tog'oyisi Mirsaid Kobuliy aytganidek³, "Kishilar duo olmoq uchun olslardan yo'l bosib kelib, u kishining xizmatiga kirurlar. Taqdir inoyatini qarangki, o'z-o'zidan shunday zotga ro'paro keldingiz, duosiga ham muyassar bo'ldingiz. "Chindan ham Navoiy shunday buyuk insonlarning, "Zafarnoma "ni yozgan tarixnafis Sharafiddin Ali Yazdining duosiga musharraf bo'lgan. Yoki :

Orazin yopqach ko'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo 'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lгach quyosh .

Bayti uchun Lutfiy "Men turkchada o'zimni quyosh deb fahmlar edim, bu yoshimga qadar men orzulagan latofatni bu o'g'lon shul yoshida bitibdi. Vallooh, agar muyassar bo'lsa edi o'zimning o'n -o'n ikki ming forsiy va turkey baytimni shu birgina g'azalga alishtirardim va Alisherbek bunga ko'nsa, bu ishimni zo'r muvaffaqiyat deb hisoblardim" degan so'zları fikrimiz tasdig'idir. Asarda ko'rishimiz mumkinki, Xondamirning "Makorim ul Axloq"⁴ asarida ham yuqoridagi baytninng o'zigina berilgan bo'lsa, Isajon Sulton esa g'azalning to'liq shaklini taqdim eta olgan. Shu bilan bir qatorda juda ko'p g'azallarining yaratilishi va uning atrofidagi jarayonni o'qirmandlar qalbida to'la-to'kis gavdalantiradi.

Navoiy chin ma'noda xalqni seuvuchi insondir. Biz buni "Kelajak bilan uchrashuv" da ifodalangan voqeada Xusrav ismli garchi notanish yigit bilan dildan suhbatida, xamyonidagi bor oltin dinorlarini yigitga uzatganida ko'rishimiz mumkin. Navoiy kasallik tufayli muhtoj bo'lsa ham kimsadan yordam so'ramadi, yordamlarini ham ming istiholalik bilan qabul qilardi.

Navoiy hech bir insonning diliga og'ir gap aytmas, jamoatda mulzam qilmas edi. Pahlavon Muhammad muolajja vaqtida (Navoiy betobligida Pahlavon Muhammad davolash maqsadida uqalashni o'zi olib borardi) bir savol bilan murojaat qiladi⁵. "Savolimiz shuki, turkiygo'y shuarodan qaysi biri she'rni yaxshiroq aytibdurlar? Qaysi birini yoqtirasiz? "-desalar Navoiy Lutfiyni, deya javob beradi. Shunda Pahlavon Muhammad nega Sayyid Nasimi demadingiz deganda, kamtarinlik vazminlik bilan "Xayolga kelmadi, biroq Sayyid Nasimiyning nazmi o'zga rang tushubdur, zohir ahli shuarosidek nazm aytmaydur, balki haqiqat tariqini ado qilubdur, deya donolik bilan javob qaytaradi.


Navoiy xalq manfaatini har narsadan ustun qo'yadi. Saroydag'i notinchlik, yurishlarda ham zakiylik bilan mamlakat hukmdoriga eng to'g'ri maslahatni beradi. Garchi bir umrlik orzusi bo'lgan haj ziyyaratidan ham qoladi.

Alisher Navoiy obrazida avvalo odamiylik, sahiylik, do'stga vafo, ezgulik, yaxshilik, kamtarlik, xalq g'ami bilan yashash, so'zga ehtiyyotkorlik tuyg'ularini jo etgan. Asardagi boshqa obrazlar davrning mashhur kishilari pir-u, ulamolari bo'lsa hamki, go'yo Navoiy obrazini to'liqroq ochib berishga safarbar qilingan.

³ Isajon Sulton "Alisher Navoiy "romani Toshkent "Adabiyot" nashiryoti 2021

⁴ Xondamirning "Makorim ul Axloq" G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2015

⁵ Isajon Sulton "Alisher Navoiy "romani Toshkent "Adabiyot" nashiryoti 2021





Shuningdek Husayn Boyqaro va Navoiy orasidagi sadoqat, do'stlik o'zaro ishonch, ham fikirlik ularni umri davomida hamroh bo'ldi. Husayn Boyqaro santanat ishlarida oilaviy munosabatlarda, janglarda Navoiy bilan maslahatlashib ish yuritadi. Biz buni Astrobot hokimi bo'lganida Abulmuhsin Mirzo o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etishda Abulmuhsinga⁶ "Padar so'z ham aytganda hatto bosh ko'tarilmas, kiprik qoqilmas. O'g'il-ila padar o'rtasida xalq turgaydir. Navoiy qalbida Husayn Boyqoroning mastlik chog'da o'z nabirasini qatl hukmiga imzo qo'yanligi, shahid ketgan 11 yashar Mo'minmirzoning o'limi chuqur qayg'uga soladi.

Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro iltimosiga ko'ra shaxzoda Badiuzamonga shunday nasihatlar beradiki, sultanat osoyishtaligiga o'z hissasini qo'shadi, Navoiy asarida xalq g'ami bilan yashaydi, har bir harakati xalqning faravon yashashiga qaratilgan edi. Uning tantilagini, jomardligini oddiy yigit Xusrav suv chiqarayotganida ozgina mablag'ga muhtoj ekanligimi bilib oq, hamyonidan bir necha dinorni chiqarib yigitga uzatgan edi.


Asarda Shayboniyxon, Abulhayrxon, Shoxrux Mirzo, Abusaid Mirzo, Husayn Boyqaro, Jomiy, Lutfiy, Sharafiddin Al Yazdiy, Paxlavon Muhammad, Said Xasan Ardasher, Shayx Kamol Turbatiy, Mavlono Abulays, Abu Abdulloh Kulohiy kabi tarixiy obrazlar keltirilgan.

Asardagi har bir obraz mohirlik bilan tanlangan. Har bir qahramon go'yoki Navoiy siyemosini to'liqroq yaratishga safarbar qilingandek go'yo. Navoiyning shunday buyuk inson bo'lismiga u yashagan muhit, atrofidagi ilm-u irfon egalari munosib hissa qo'shgan deb bilamiz.

Asarni yaratishda adibdan juda katta ma'suliyat, tarixiy, dunyoviy bilim talab etilganini sezishimiz mumkin. Boisi yozuvchi hech bir adib tomonidan tilga olinmagan, xalq tili bilan aytganda tesha tegmagan so'zlardan o'rinni foydalanadi "Hiriy", "Hirurud" deya Hirotni erkalab ayttilishi, "Tug'yonlar fasli" deya bahorni e'tirof etishi ham o'ziga xos yondashuv deb o'ylaymiz. Yozuvchi o'z maqsadini faqat qahramonlar xatti-harakati, nutqi bilan emas, tabiat manzaralarini tasvirlash orqali ham yoritib beradi. Peyzajni shunchalik mohirona tasvirlaydiki, go'yo o'zingizni asar ichida yurgandek tasavvur etasiz.

Asarda "Havzi mohiyonda bir tantana" nomli bo'lim so'ngida quyidagi fikrlar keltirilgan. "Shu kichik jussali, tiniq nigohl bolakay kelajakda butun turk mamlakatlari uzra fikr qanotini keng yoyadigan, qushlaru hayvonot olamlaridan to o'n sakkiz ming olam mo'jizalarigacha nazar soladigan, ma'rifat vodiylarini kezib, Adam dashtidan xabar oladigan avliyo bo'lib yetishishidan Muhammad Ali tog'oyining ham, boshqalarning ham xayoliga kelmasdi" degan fikrlar bilan yakunlangan. Bu shunchaki bir go'zal orzu bo'lsa ham, undanda buyuklikni zabit etdi deyishimiz mumkin. Shuningdek asarda keltirilgan "Dumli yulduz" voqeasi ham kelajakdag'i yuksalishdan dalolatdir. Bugungi kunda Navoiy asarlarini sevib o'qimagan, satrlarini yod bilmagan biror o'zbek topilmasa kerak. Nafaqat yurtimizda

⁶ Isajon Sulton "Alisher Navoiy" romani Toshkent "Adabiyot" nashiryoti 2021





balki butun dunyoda Navoiy ijodiga qiziqish kundan kunga oshmoqda. Biz o'zbek farzandlari faqatgina faxrlanmasdan, buyuk insonlarga munosib avlod bo'lismiz lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Mustamlakachilik davrida Navoiy mavzusida asarlar yozgan-u, lekin istiqbolga erishmagan, adiblarimiz tanqid va ta'qibga uchragani rost Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar", Mirkarim Osim tarixiy asarlari, Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar", Oybek "Navoiy" romani uchun og'ir jazolarga uchragani sir emas. Bu esa adiblar qalbida hadik, adabiyotimizda esa bo'shliq paydo etdi. Isajon Sultonning ushbu romani o'sha bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Har bir qo'liga qalam olgan yozuvchining yillar davomida diliga tugub qo'ygan, barcha fazilatlarni birgina obrazda jo etmoqchi qahramoni bo'ladi. Adibning ham aynan shunday orzusi Navoiy siyosini yaratish bo'lsa ajabmas. Asrlar o'tsada qadri quyi enmayotgan buyuk insonni yana bir bora yaratishda adib qalbida qo'rquv bo'lgani shubhasiz. Bu asar necha uyqusiz tunlarning guvohi, adoqsiz savollarning javobidir. Shunday ma'suliyatli vazifani yuksak mahorat bilan uddalagan. Hajm jihatdan salmoqli, muazzam va nodir asr yillar o'tgani bilan o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Isajon Sulton "Alisher Navoiy "romani .Toshkent :Adabiyot nashriyoti, 2021-yil.
2. Parandovskiy Ya "So'z kimyosi " Jahon adabiyoti jurnali 2000-yil N4 683.
3. Xondamirning "Makorim ul Axloq" G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2015.

